


# Fermer xo'jaliklariga etkazilgan 1 milliard 54 million so'mlik zarar undiriladi

Bir qator internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda Kattaqo'rg'onida elektrsiz qolgan issiqxona bir kechada 35 ming dollar zarar ko'rgani haqida tarqalgan xabarlar o'rganib chiqilganda mazkur holat haqiqatdan ham ushbu tumanda sodir bo'lgani aniqlandi.



Jumladan, "Kattaqo'rg'on Valijon parranda" MChJ raisi M.Ulug'murodov 2020 yil 18 noyabrdan 19 noyabrga o'tar kechasi tuman elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan 6 soat mobaynida elektr energiyasi uzib qo'yilishi oqibatida 1 gektar maydondagi issiqxonada ekilgan pomidor muzlab qolishi oqibatida 231 million so'm zarar ko'rganini bayon etib, Kattaqo'rg'on tumani prokuraturasiga murojaat qilgan.

Tumandagi "Murodulla bobo" fermer xo'jaligi rahbari F.Nasrullaev esa issiqxonasidagi 1 gektar maydondagi pomidor va 1 gektar erdagi bodring ko'chatlari va hosilining muzlab qolishi oqibatida 823 million so'm moddiy zarar ko'rgan.

Vaholanki, fermer xo'jaliklari va elektr tarmoqlari korxonalari o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra, ta'minotchi iste'molchiga elektr energiyasini etarli miqdorda va uzluksiz etkazib berishi lozim.

Shartnoma shartlari buzilganligi va majburiyat bajarilmagani sababli Kattaqo'rg'on tumani prokuraturasi joriy yilning 23 noyabr sanasida mazkur holatlar yuzasidan "Samarqand hududiy elektr tarmoqlari" aktsiyadorlik jamiyatidan fermer xo'jaliklariga etkazilgan 1 milliard 54 million so'm moddiy zararni undirish yuzasidan Kattaqo'rg'on tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritdi.

Tadbirkorlar manfaatini himoya qilish va ularga etkazilgan zarar undirilishi shaxsan viloyat prokurori nazoratiga olindi.